

BACHADON MIOMASI

Nigmatova Shahzoda Begzod qizi
Buxoro shahar Zarmed Universiteti
Davolash ishi fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda ayollarda keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lgan bachadon miomasi hamda bu kasallikning kelib chiqish sabablari, uning klinik belgilari, asoratlari va davolash chora-tadbirlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bachadon, mioma, o'sma, bezlar, gormonlar, gipofiz, to'qima, og'riq, qon, hayz sikli, tuxumdon.

UTERINE FIBROIDS (MYOMA)

Abstract: This article talks about uterine myoma, which is one of the most common diseases in women today, as well as the causes of this disease, its clinical symptoms, complications, and treatment measures.

Key words: uterus, myoma, tumor, glands, hormones, pituitary gland, tissue, pain, blood, menstrual cycle, ovary.

МИОМА МАТКИ

Аннотация: В статье рассказывается о миоме матки, которая на сегодняшний день является одним из наиболее распространенных заболеваний у женщин, а также о причинах этого заболевания, его клинических симптомах, осложнениях и мерах лечения.

Ключевые слова: матка, миома, опухоль, железы, гормоны, гипофиз, ткань, боль, кровь, менструальный цикл, яичник.

Bachadon miomasi deb, mushak to'qimasi hamda biriktiruvchi to'qimalardan tashkil topgan xavfsiz o'smaga aytiladi. Mioma keng tarqalgan kasallik bo'lib, ginekologik bemorlarning 10-27% ida, 30 yoshga yetgan bemorlarning 20% ida, 40 yoshdan kata bemorlarning esa 40% ida uchraydi.²³

Bu kasalga duchor bo'lgan bemorlar organizmida bir qancha a'zo va to'qimalar zararlanadi, ya'ni yurak sohasida og'riq paydo bo'lishi va uning kattalashishi (miomatoz yurak). Shuning uchun ham bu kasallikni sistemali kasallik deyiladi.²⁴

Ayollar organizmida bachadon miomasining kelib chiqishi, asosan, gormonal o'zgarishlar tufayli, ya'ni gipotalamus-gipofiz-buyrakusti bezi, tuxumdonlar orasidagi

²³ Shukurov F.I.Nigmatova G.M. "Akusherlik va Ginekologiya" darslik, Toshkent-2022, 330-bet

²⁴ Shukurov F.I.Nigmatova G.M. "Akusherlik va Ginekologiya" darslik, Toshkent-2022, 330-bet

munosabatning biror-bir qismining shikastlanishi hamda bachadondagi o'zgarishlar natijasida xususan miometriyning giperplaziyasi vujudga kelishi mumkin.²⁵

Bachadon miomasi bilan kasallangan ayollarning kasallik tarixiga ahamiyat berilsa, ularning yoshligida har xil yuqumli kasalliklar bilan, 1/3 qismi bachadon ortiqlarining yallig'lanishi, bepushtlik bilan kasallanganligi aniqlangan va bu holatlar o'z navbatida organizmda gomeostaz buzilishiga olib kelib, ichki sekretsiya bezlarining faoliyati o'zgarishiga sabab bo'lgan. Bu holat hayz siklining buzilishiga ta'sir qilib, bir-biriga bog'liq bo'lgan patologik halqani hosil qiladi. Bu bachadon miomasining kelib chiqishiga sabab bo'lgan.²⁶ Bachadon miomasining kelib chiqishiga faqat uzoq muddat davomida estrogen-gestagen gormonlarining organizmga ta'sirining buzilishigina emas, balki bachadon mushaklarini ta'minlovchi nerv retseptorlarining g'ayritabiiy qo'zg'aluvchanligi sabab bo'ladi.²⁷

Gipofizning gonadotrop gormoni tekshirilganda, hayz sikli davomida organizmda progesteron miqdorining kamligi, bu esa, o'z navbatida, hayz siklining ikkinchi davri yetishmovchiligiga olib kelishi aniqlangan. 70-80 % hollarda bachadon miomasi bemorlarda patologik haz sikli mavjudligini ko'rsatadi. Klinik va eksperimental tadqiqotlarga tayanib, ayollar organizmida ro'y bergan gormonlar o'zgarishi, xususan, estrogen gormonlarining ko'p ishlanishi bachadon miomalari paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi, deb taxmin qilinadi.²⁸

Tuxumdon: Bachadon miomasida tuxumdon ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Xususan, tuxumdon o'lchami jihatidan kattalashadi, chunki to'qimalar mayda-mayda distrofik o'zgargan pufakchalarga aylanib, ko'p miqdorda fibroz tanachalar bilan qoplangan bo'ladi. Qon tomir devorlarida skleroz va gialinoz o'zgarishlar sodir bo'ladi. Biriktiruvchi to'qima ko'p miqdorda bo'lib, premordial follikulalar soni juda ham kamayib ketgan bo'ladi.²⁹

Klinikasi: Ayrim hollarda bachadon miomasi hech qanday belgilersiz kechadi, ayollarda shikoyatlar bo'lmaydi, ammo profilaktika maqsadida ayol tekshirilganda aniqlanadi. 60-80% hollarda asosiy belgilardan biri bemorda qon ketishi hisoblanadi. Qon ketishi alomatlari turli bemorlarda turlicha bo'ladi. Ba'zilar hayz sikli uzayishi yoki hayz vaqtida qon miqdorining biroz ko'payishi-menorragiya kuzatilsa, ba'zilar tartibsiz, juda ko'p to'xtovsiz qon ketib, og'ir turdagi kamqonlik kasalligiga sabab bo'lishi mumkin. Hayz 10-12 kungacha davom etib, juda ko'p miqdorda qon ketadi, bunga giperpolimenoreya deyiladi. Miomalarda ko'p uchraydigan belgilardan yana biri og'riqdir. Og'riq xuddi dard tutganga, sanchiqqa o'xshash bo'lib, ayniqsa, hayz ko'rishdan oldin va hayz ko'rish vaqtida kuchayadi, pastga tortganga o'xshab zo'rayishi yallig'lanishdan keyingi bitishmalar

²⁵ Shukurov F.I.Nigmatova G.M. "Akusherlik va Ginekologiya" darslik, Toshkent-2022, 330-bet

²⁶ Shukurov F.I.Nigmatova G.M. "Akusherlik va Ginekologiya" darslik, Toshkent-2022, 330-331-bet

²⁷ F.M. Ayupova, Yu. Q. Djabbarova "Ginekologiya" darslik, Toshkent "Mehridaryo" 2015, 133-bet

²⁸ Ya. N. Allayorov. "Akusherlik va Ginekologiya" o'quv qo'llanma, Toshkent-2013, 340-bet

²⁹ F.M. Ayupova, Yu. Q. Djabbarova "Ginekologiya" darslik, Toshkent "Mehridaryo" 2015, 134-bet

borligidan darak beradigan belgi hisoblanadi. Og‘riq, asosan, o‘smaning o‘lchamiga va uning qayerda joylashganligiga bog‘liq.³⁰

Tashxis qo‘yish

1. Anamnez.
2. Qin orqali tekshirish
3. UZD (UTT)
4. Funksional testlar yordamida sinash
5. Bachadon bo‘shlig‘ini zond bilan tekshirish
6. Bachadon bo‘shlig‘i va bachadon bo‘yni kanalini alohida qirib gistologik tekshirish, bunda ehtiyotkorlik talab qilinadi, chunki tugunchalar nekrozga va qon ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

7. Laparoskopiya
8. Gisteroskopiya va biopsiya qilish. Bunda submukoz tugunlar asosan aniqlanadi.
9. GSG-gisterosalpingografiya- bunda to‘lish nuqsoni kuzatiladi. Braun shpristi yordamida moddani 5 daqiqa davomida yuboriladi.

10. Kompyuter va yadro-magnit-rezonans (YaMR) tomografiyasi.³¹

Miomaning asoratlari:

1. Mioma oyoqchasining buralib qolishi:
 - Bunda ‘‘o‘tkir qorin’’ belgilari kuzatiladi: o‘tkir og‘riq, til yuzasining o‘zgarishi, chanqash, ko‘ngil aynishi, qayd qilish, Shetkin-Blyumberg belgisi paydo bo‘lishi, taxikardiya va b.

2. Miomaning shishib nekroz bo‘lishi:
 - Bu holatda kuchli og‘riq, ko‘pincha qon ketish va tana haroratining ko‘tarilishi va boshqa belgilar kuzatiladi.

3. Shilliq osti qavati miomasining tug‘ilish alomatlari, hatto bachadonning ag‘darilishi ham kuzatilishi mumkin.

4. Mioma tugunlarining infeksiyalanishi, yiringlashi.

5. Sarkomaga aylanishi.

6. Kuchli profuz qon ketishi.

7. Anemiya (kamqonlik)³²

Bachadon miomasini davolash

Miomasi bo‘lgan hamma ayollar dastlab umumiy davolanadilar, konservativ davolash usuli samara bermasa, operatsiya yo‘li bilan bachadon olib tashlanadi.³³

Umumiy davolash quyidagilardan iborat:

³⁰ . Ya. N. Allayorov ‘‘Akusherlik va Ginekologiya’’ o‘quv qo‘llanma, ‘‘O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’’, Toshkent-2013, 340-bet

³¹ F.M. Ayupova, Yu. Q. Djabbarova ‘‘Ginekologiya’’ darslik , Toshkent ‘‘Mehridaryo’’ 2015 , 137-138-bet

³² F.M.Ayupova, Yu.Q. Djabbarova ‘‘Ginekologiya’’ (darslik), Toshkent ‘‘Mexridaryo’’ 2014, 113-114-bet

³³ Allayorov Ya. N. ‘‘Akusherlik va Ginekologiya’’ o‘quv qo‘llanma, ‘‘O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’’, Toshkent-2013, 341-bet

1. Vitamin A-200000 TB, baliq moyi yoki ayevit kapsulasini 1x3 mahal; davolash 1 oy davomida yoki hayz siklining 16-kunidan 26-kunigacha.
 2. Vitamin S 0,5 mg x3 mahal hayzining ikkinchi yarmida (16-kunidan 26-kunigacha).
 3. Kaliy yodid-0,5 % -1 osh qoshiqdan 3 mahal ichiladi.
 4. Har oyda 7-10 kun nahorgi nonushtadan 20-50min avval $\frac{1}{2}$ - $\frac{1}{4}$ stakan meva sharbatlari : olma, o‘rik, olxo‘ri, qizil lavlagi, kartoshka (almashtirilib ichiladi).
 5. Kamqonlikni davolash (ferrum-LEK, globeks, ferkayl, kosmofer). Bachadon mushaklarini yengil qisqartiruvchi dorilardan tavsiya qilinadi (ergotel, lagolilus ekstrakti)
 6. Klimakterik davrda remens 5-10 tomchidan 3 mahal ichiladi, 10-30% yod eritmasini bachadonga qorin pastiga elektrofarez orqali 6-8 marta buyuriladi.
 7. Neyroleptiklardan seduksen, biopasit, notta, valeriana, frinalon sutkasiga 2,5 mg, triftazin 1-2mg.
 8. Agar yallig‘lanish alomatlari ham kuzatilsa (surunkali salpingooforit va b.) prodigiozan, pirogenal, nurofen, ibuprofen-TEVA beriladi.
- Pirogenal 25-50mEd kunora in‘eksiya qilinadi, har gal 25 mEd dan oshirib boriladi to tana harorati 38 C ga ko‘tarilgunicha, bir davolash kursida 10-30 marta in‘eksiya. Maksimal miqdori 1000mEd dan oshmasligi kerak.³⁴

Demak, bachadon miomasi – gormonlarga bog‘liq bo‘lgan kasallikdir. Bu kasallik ko‘proq gormonal buzilishlar natijasida ayniqsa, estrogen gormoni konsentratsiyasi ortishi bilan, bundan tashqari kamharakatlik, ortiqcha vaznlikdan, surunkali kasalliklardan, surunkali stress, jinsiy a‘zolarida yallig‘lanishlar kuzatilishlari va ko‘p sonli abortlar ta‘siri natijasida kelib chiqadi. Hozirgi kunda bachadon miomasini davolashning ko‘plab usullari mavjud. Xususan, konservativ davolash (asosan gormonlar yordamida), rentgen nurlari bilan, shuningdek kasallik kech bosqichda aniqlansa jarrohlik yo‘li bilan davolash. Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, hozirda bachadon miomasining kech bosqichda aniqlanishi natijasida, bachadonni olib tashlashga majbur bo‘layotgan ayollar soni ham ortib bormoqda. Buning natijasida ayollarda ko‘plab noxush holatlar, shuningdek, ayollar uchun kuchli stress holatlari yuzaga kelmoqda. Chunki bachadon olib tashlangandan so‘ng ayol farzand ko‘ra olmaydi. Bunday holatlarda ayollar tushkin holatlarga tushib qolmasliklari kerak, chunki bachadon faqat ma‘lum bir funksiyani bajaradi, ya‘ni faqat farzand ko‘rish uchun xizmat qiladi, uni olib tashlagandan keyin ham ayol to‘liq hayot kechira oladi. Avvalo, bunday holatlarga uchramaslik uchun ayollar doimo ginekolog ko‘rigidan o‘tib turishlari, kasallik aniqlangandan so‘ng esa kechiktirmasdan davolash choralarini ko‘rishlari kerak. Kasallikdan jarrohliksiz davolanish uchun esa, to‘g‘ri ovqatlanish ratsioniga, gormonal va immunitet holatlarini tiklash, ko‘p stressga tushmaslik kabi tamoyillarga rioya qilish kerak. Chunki har qanday kasallik noto‘g‘ri ovqatlanish va stress natijasida kelib chiqadi.

³⁴ F.M.Ayupova, Yu.Q. Djabbarova ‘‘Ginekologiya’’ (darslik), Toshkent ‘‘Mexridaryo’’ 2014, 116-117-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allayorov Ya. N “Akusherlik va Ginekologiya” o’quv qo’llanma
2. Shukurov F.I, Nigmatova G.M. “Akusherlik va Ginekologiya” darslik
- 3 .F.M.Ayupova, Djabbarova Yu. Q. “Ginekologiya” darslik